

TOHIR MALIK ASARLARIDA AXLOQIY FAZILATLARNING ULUG‘LANISHI

Sharibjonova Xurshidaxon Anvarjon qizi

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) kafedrasida 2-kurs magistranti

Dadajonova Mavjuda Ismoil qizi

To‘raqo‘rg‘on tumani 4- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Tohir Malik asarlarining axloqiyligi, insoniy fazilatlarining ulug‘lanishi, va hozirgi zamon yoshlari hayotida tutgan o‘rni haqida fikr bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Axloq, odob, Qur‘oni karim, hadis, umidimiz yoshlari, yaratiq, “Alvido bolalik”, “Shaytanat”

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается нравственность произведений Тахира Малика, прославление человеческих качеств, их роль в жизни современной молодежи.

Ключевые слова: Нравственность, нравы, Священный Коран, хадис, юность нашей надежды, созидание, «Прощай детство», «Сатанат».

ABSTRACT

The article discusses the morality of Tahir Malik’s works, glorification of human qualities, and their role in the lives of today’s youth.

Key words: Morality, manners, Holy Qur’an, hadith, youth of our hope, creation, "Goodbye childhood", "Satanat"

Dunyoda behisob asarlar yaratiladi, bir necha yuz sahifadan yuz sahifadan iborat asarlar yillar davomida o‘qilmay keladi lekin, shunday asarlar yaratiladiki, ular mangu barhayot yillar o‘tsa-da ular o‘z qiymatini yo‘qotmaydi. Mana shunday asarlar sirasiga Tohir Malik yaratgan asarlar kiradi. Yozuvchining asarlarini o‘qir ekansiz, o‘zga bir olamga tushib qolgandek bo‘lasiz. Tohir Malik o‘z asarlarini yaratarkan, asarlarida Qur‘on oyatlari va hadislardan ham foydalanadi. Uning “Shaytanat” deb ataluvchi romanini ko‘pchilik turlicha talqin qiladi, yuzaki tomondan qarab qandaydir jinoyiy to‘da guruhning ishlari haqidagi tasavvur ko‘pchilikda saqlanib qolgan. Aslidachi?

Aslida ham shundaymi? Yo‘q, agarda qandaydir jinoiy to‘daning kirdikorlari haqida bo‘ladigan bo‘lsa yozuvchi nega har bir kitobning debochasida dinimizning muqaddas kitobi bo‘lgan Qur‘oni Karimdan oyatlar keltirish bilan boshlaydi. Kitobda har doim ikki tushuncha yaxshilik va yomonlik yonma yon tasvirlanadi. Kitobni qo‘lga olar ekanman o‘ylab qolaman yomon odam qayerdan paydo bo‘ladi yoki taqdiriga yomonligi bitilgan bo‘ladimi? Hayot majbur qilmaydimi uni yomon inson bo‘lib qolishga. Asarning bosh qahramoni Asadbekni murakkab obraz darajasida bilaman. Chunki ko‘zimizga yovuzday bo‘lib ko‘ringan insonning qalb tubida yaxshilik, haqiqat va adolat tuyg‘ulari bo‘ladi. Kesakpolvon singari butunlay insoniyligini yo‘qotgan emas. Asadbekni qora yo‘lga kirib qolishda hayotida qora chizgilar sabab bo‘lmadimikin? Otasin ko‘z oldida bosmachilar olib ketishgani, ukasining vafoti, ustoz o‘quvchilarni oldida uni sharmanda qilib barcha sinfdoshlari haqorat qilib, uning yuziga bosmachining bolasi tupurib o‘tganlari yoshlikdagi xo‘rlanishlar uni shunday bo‘lib voyaga yetishiga o‘z tasirini ko‘rsatadi albatta. U bolaligidanoq o‘ch olish maqsadi bilan yashaydi, shunga intiladi. O‘ch olish qasd niyati uning qalbini qoraytirib qo‘yadi, odamlardan nafratlanib yashovchi shaxs sifatida tarbiyalanadi. Yozuvchi jinoiy to‘da haqida yozar ekan ularning kirdikorlarini ochib berishda turli usullardan foydalanadi. Ularni ochib berishda bo‘rttirishdan, badiiyatdan foydalanmaydi balki hayotiy fikrlashga harakat qiladi, hayotiy misollar bilan dalillaydi, voqealar shu darajada izchillikda yozilganki, kitobxon asarni qo‘ldan qo‘ymay shavq bilan o‘qiydi. Asarda jaholat qabohat, razolat tushunchalari qoralanadi. Xalqimizda asrlar davomida aytib kelingan maqol bor “Odobni beodobdan o‘rgan” bu maqol bejiz aytilmaganiga asarni o‘qib guvoh bo‘lamiz. Asarni o‘qir ekanmiz Alloh Taolo insonni yaratar ekan, uni barcha mavjudotlarning eng oliysi gultoji qilib yaratilganligi, inson dunyoga kelganda uning oldida har doim ikki yo‘lning turishi : birisi rahmon va birisi shayton yo‘lining turishi qay birini tanlash insonning o‘ziga bog‘liq ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Inson shunday bir xilqatki taqdiri Alloh tomonidan yozilgan bo‘lsa-da, hayot yo‘lini o‘zi belgilaydi va o‘zi barpo qiladi. Asarda xuddi shu g‘oyalar ilgari suriladi. Hayot inson uchun Alloh tomonidan bir tuhfa uni qanday yashab o‘tish esa insonning o‘zigagina bog‘liq. Hayotimizdagi yomonliklar, qabohat bizni yomonlik sari yetaklaydi. Asadbekni ham hayot yomon bo‘lishga majbur qiladi, odamlardan doimo yuvuzlik ko‘raverganidan hayot uni yovuz inson sifatida voyaga yetkazadi, lekin qalbining to‘rida insof, adolat tuyg‘ulari yastangan bo‘ladi, nochorlarning oyog‘idan chalmaydi, muhtojlarga yordam berishga intiladi. Uni jamiyat, hayot Asadbek qilib tarbiyalaydi. Hayotidagi chigalliklar, og‘ir vaziyatlar shunday Asadbek paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Qalbi jaholat-u razolat, qabohat, yomonlikka to‘la bo‘lsa, ham u insoniyligini yo‘qotmaydi. Og‘ir kasallikka chalingan davrda qalbidagi ezgulikka intilgan. Asadbek uyg‘ona boshlaydi. Asadbek kasallikdan tuzalganda

qayta tug'ilganday bo'ladi. Lekin o'g'lining bevaqt o'limi yana qabohat sari yetaklaydi.

Asardagi Manzura obrazi katta ahamiyatga ega turmush o'rtog'i katta bir ijtimoiy to'daning sardori bo'lsa-da, doimo hokisorlikda hayot kechirdi. Farzandlariga yaxshi tarbiya berdi, hech qachon otasidek bo'lishlarini xohlamayd. Ammo taqdir taqozosi bilan otasining dushmanlari Asadbekning qizini qabohat sari yetaklashadi. Otasidan qasd olish maqsadida uni razolat botqog'iga botirishadi. U botqoqdan qutilishga, undan xalos bo'lishga intiladi. Chunki u nima bo'lganda ham hech qachon taqdir sinovlari oldida bosh eg, maydigan Asadbekning qizi edi. O'z domiga tortgan insonlardan shafqatsizlarcha o'ch oladi. Asadbekning begunuh to'kkan ko'z yoshlari evaziga farzandini o'ldirishadi. Farzandining o'limiga guvoh bo'layotgan Asadbek shuncha mol- dunyoga erishib ham hech qanday najot topa olmaydi Allohning unga bergan jazosi oldida ojiz qoladi Kitobxonni xuddi mana shu holatda yig'lashga majbur qiladi. Chunki otasining o'tmishda qilgan qabih ishlari uchun begunoh farzandi o'z joni bilan tovon to'laydi. Asardagi shunday vaziyatlarga banda Alloh taoloning yozgan yozig'ining oldida ojizligiga guvoh bo'lasiz. Asarning beshinchi kitobida Qur'oni Karimdan oyat, oyat hadislar keltirib o'tiladi. Bunda ikki tushunchaning: ezgulik va razolat tushunchalari izohlab beradi. Agar e'tibor qiladigan bo'lsak, dinimizning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda jannat va do'zahning ta'rifi yonma yon tasvirlanadi, asarda ham qabohat va ezgulik yonma yon tasvirlanib, yozuvchi ko'p o'rinda fikrni dalillashda muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimdan foydalanadi bu razolat dinimizda ham qoralanganligini ta'kidlab o'tmoqchi bo'ladi. Asar so'nggida Asadbekning jon taslim qilishi holatiga e'tibor qiladigan bo'lsak, har narsaga qodir inson Allohning irodasi oldida irodasi ojizligiga guvpoh bo'lamiz. Asadbekni qancha qoravullar qo'riqlamasin Azroil ulardan o'tib Asadbekning jonini olishga shaylanadi. Bundan ko'rinadi-ki inson har qancha chiransa –da, har qancha kerilsa –da Allohning buyrug'i oldida ojizligi Alloh Taolo tomonidan insonga umr deya atalmish tuhfa berilar ekan insonning o'z oldida turgan ikki yo'l qabohat va ezgulik shayton va rahmon yo'lini tanlash o'ziga bog'liq. Asardagi jinoiy to'daning har bir qabihligini Alloh tomonidan jazolanishi bu yo'lning naqadar yomonligini ko'rsatib turadi. Asar hozirgi globallashgan zamonimizda muhim ahamiyatga ega chunki insonga shayton yo'lining yomonliklari odamlarning naqadar tubanliklari ularning razolat botqog'iga botganliklari bu botqoqning oxiri doimo yomonlik bilan tugashi, har qanday qabihlik jazosiz qolmasligi haqida. Asarni o'qiganingizda faqat tashqi olamiga emas, uning ichki dunyosiga kirib borganingizda asar naqadar yuksakligiga guvoh bo'lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Tohir Malik "Shaytanat" asari 1,2,3,4,5 tomlar